

OLIIY TA'LIMDA TALABALARNI ISH BILAN BANDLIKKA TAYYORLASH ASOSIDA IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Zikriyayev F.M.

Guliston davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi

zmzikriyayev@mail.ru

Rasulova.N.T.

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

nasiba_rasulova@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarni ish bilan bandlikka tayyorlash asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning bosqichlari yoritib berilgan. Bugungi kunda innovatsion iqtisodiyot sharoitida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham qurollantirish zarurati ortib bormoqda. Maqolada iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish bosqichlari – ta'lim mazmunining yangilanishi, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, hamda bandlik siyosatining transformatsiyasi kabi jihatlar ketma-ket tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim, kasbiy ta'lim, bandlik, innovatsion rivojlantirish bosqichlari, raqobatbardoshlik, mehnat bozori, kompetentlik.

KIRISH

Maqolada oliy ta'limda talabalarni ish bilan bandlikka tayyorlash asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish bosqichlari bo'yicha fikrlar keltirilgan. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish bo'yicha soha olimlari fikrlari va ulardan kelib chiqadigan xulosalar bayon qilingan. Shuningdek, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha o'rganilgan tajribalar va olib borilgan tadqiqotlar natijasi bayon qilingan.

Bugungi kunda jahon miqyosida ta'limning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyot fanlarini o'qitishning didaktik vositalarini takomillashtirish orqali iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishga ustuvorlik berilmoqda. Xususan, o'qitishning zamonaviy didaktik mazmunini takomillashtirish va qo'llash bo'yicha kontseptual loyihalashtirishga asoslangan yangi nazariy konseptsionalarni ishlab chiqish, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanib ta'lim jarayonini tashkil etish metodikasini takomillashtirish, o'qitishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yangi ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish, zamonaviy o'qitish vositalarining ta'lim jarayoni sifatiga ta'sirini baholash metodikasini ishlab chiqish, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida bo'lajak iqtisodiyot sohasi mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanishning dasturiy-metodik ta'minotini yaratish kabilardan iborat.

Aholining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishning samarali mexanizmlaridan biri – mehnat bozorini maqsadga muvofiq shakllantirish va rivojlantirish hamda uni tartibga solish bilan bir qatorda iqtisodiyotni innovatsion

rivojlantirish sharoitida talabalar bandligini taminlash hisoblanadi. Bunday tadbirlarni ishlab chiqish – sodir bo‘layotgan jarayonlarni chuqur ilmiy tadqiq etilishini, mehnat bozorini samarali rivojlantirilishining eng muhim muammolarini va ularni ijobiy yechish yo‘llarini aniqlashni talab qiladi. Bu yo‘llarni to‘g‘ri topishda esa bugungi kunda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida talabalar bandligini taminlashga oid innovatsion modellar va informatsion texnologiyalardan foydalanish negizida kompleks tahlil qilishga va istiqbolni belgilashga asoslaniladi.

Bular mazkur muammolarni ilmiy tadqiq qilishning o‘ta muhimligidan darak beradi, zero, ularni hal etish mamlakat iqtisodiyoti va mehnat resurslarining oqilona bandligini ta‘minlashda ijobiy natijalarga erishishga ko‘maklashadi. Ushbu muammoning hozirgi paytdagi yuqori ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va hali etarli darajada o‘rganilmaganligi – ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Klassik nazariya asoschilari A. Smit [1] va D. Rikardo [2] jamiyat boyligi taqsimlanishini va ishchilar xonadoni turli boylikka ega bo‘lishini qayd etdilar. D. Rikardo ishchilarning ahvolini real ish haqi belgilashini va bu pul daromadiga, iste‘mol tovarlari narxiga bog‘liq bo‘lishini asosladi [2].

Iqtisodiy adabiyotlarda olimlar tomonidan qo‘llaniladigan “raqobatbardoshlik” tushunchasining ko‘plab ta‘riflari mavjud.

Masalan, R.A.Fatxutdinovning fikricha, raqobatbardoshlik bir qator omillar ta‘siri ostida shakllanadigan raqobat ustunliklari bilan belgilanadi. Muallif tizimning raqobat jihatdan ustunligini tizimga raqobatchilar oldida ustunlik beradigan va obyekt uni kelgusida saqlab qolishga intiladigan qandaydir eksklyuziv qadriyat sifatida ta‘riflagan [3].

S.I.Ojegov “raqobatbardoshlik” atamasini raqobatga bardosh berish, raqobatchilarga qarshi turish qobiliyati sifatida izohlagan [4]. A.Yu.Prixach “raqobatbardoshlikni ochib berishda uning muayyan darajasiga erishish muayyan raqobat ustunliklariga erishish sifatida tavsiflangan. Raqobat ustunliklari deyilganda, o‘z navbatida, raqobatchilar sharoitlari bilan solishtirilganda qulayroq sharoitlarning shakllantirilishiga xizmat qiladigan ustunliklar tushuniladi» [5].

Akademik Q.X.Abdurahmonovning fikricha, raqobat – har qanday bozor mexanizmini tashkil etuvchi ajralmas qismi bo‘lib, u ko‘p miqdordagi erkin xaridorlar va ish kuchini sotuvchilarning mavjudligi hamda ular uchun mehnat bozoriga erkin kirishi va uni tark etish imkoniyatini anglatadi [6].

Sh.R.Xolmo‘minov ta‘rifi bo‘yicha, mehnat bozorida ishchi kuchlarini yollashda erkin va samarali raqobat – yollanuvchilar bilan ish beruvchilar o‘rtasida ishchi kuchlariga bo‘lgan erkin talab va taklif tamoyilari asosida mehnat-tovarga o‘zaro manfaatli bahoni o‘rnatish [7].

Zamonaviy iqtisodiy tafakkur bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni va inson kapitalini takror ishlab chiqarishni ta‘minlovchi, o‘z ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga intiluvchi, mustaqil tarzda qarorlar qabul qiluvchi, tarkibida bir yoki bir necha shaxslar bo‘lgan iqtisodiy birlik sifatida talqin etadi.

Insoniyat jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida iqtisodiy tizimlar doirasida alohida institut sifatida: turli tashkiliy shakllarga egaligi, mamlakat xo‘jaligida ma‘lum bir vazifani bajarishi, ichki va tashqi vositalar ko‘magida tartibga solinishi bilan ajralib

turadi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish bosqichlari quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich: O'spirinlik (11 yoshdan 14 yoshgacha). Ijtimoiy nuqtai nazardan u shunday tavsiflanadiki, ushbu yoshdagi barcha o'spirinlar – ota-onasining yoki davlatning qaramog'ida bo'lgan maktab talabalari. 14 yoshgacha o'spirinning ijtimoiy maqomi bolalik maqomidan kam farq qiladi, u oila, jamiyat, davlat, xalqaro tashkilotlar va hokazolarning himoyalash obyekti hisoblanadi. Lekin ushbu yoshga etishi bilan o'spirin huquqiy maqom pozitsiyasini egallashga haqli va bunga majbur: 14 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlik boshlanadi. Shu yoshdan boshlab o'spirin mehnat qilish va o'z mehnati uchun mukofot olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchi bosqich: O'smirlik (14 yoshdan 18 yoshgacha) dastlabki ijtimoiylashuvning nihoyasiga etishi bilan tavsiflanadi, bunda ijtimoiy maqom har xil bo'ladi, ijtimoiy rollar doirasi esa sezilarli darajada kengayadi. O'quvchilarning ijtimoiy guruhi hamon ustunlik qiladi, lekin 16 yoshdan boshlab yosh inson asosiy mehnat va fuqarolik huquqlarini qo'lga kiritadi. Shu yoshdan boshlab yoshlar nikoh-oilaviy munosabatlarga kirishish huquqiga ega bo'ladi, bosqich nihoyasida huquqiy etuklik boshlanadi – yoshlar siyosiy huquqlarni ham qo'lga kiritadi. 16 – 17 yoshdan boshlab o'smirlar muhitida mazkur davrning asosiy vazifasi hisoblangan kasb tanlash vazifasini hal etish bilan bog'liq stratifikatsion jarayonlar yanada faol rivojlanadi. Kasb tanlash – aksariyat o'smirlar va qizlar uchun dastlabki jiddiy hayotiy sinov. Oxirgi yillarda oliy OTM (birinchi navbatda xususiy oliy OTM) tarmog'ining rivojlanishi bilan yoshlarda kasb tanlash uchun ko'proq imkoniyatlar paydo bo'ldi, lekin shu bilan birga yoshlarning ijtimoiy-moddiy belgilar bo'yicha ajratiladigan guruhlari o'rtasidagi «dastlabki imkoniyatlar» farqi ham oshdi.

Uchinchi bosqich: Kasbni va o'quv yurtining turini tanlash o'smirlar va qizlar hayotiy yo'llarining farqlanishiga olib keladi, bu ko'pincha nafaqat aqliy qobiliyatlar va qiziqishlarning, balki oilalar moddiy imkoniyatlarining ham farqlanishi bilan bog'liq, chunki oliy ta'lim (qator holatlarda o'rta kasb-hunar ta'limi ham) pulli bo'lib, jamiyatning katta qismi uchun qimmatlik qiladi. Mazkur bosqichda jamiyatning ijtimoiy-kasbiy tarkibida 16-18 yoshdagi ishlovchi yoshlarning katta qatlami ajraladi.

To'rtinchi bosqich: Ertangi yoshlik davri (18-23 yosh). Yoshlarning katta qismi ushbu davrda ijtimoiy jihatdan etiladi. Ular uchun mehnat o'z faoliyatining etakchi sohasiga aylanadi. Yoshlar ota-onalardan oz yoki ko'p darajada moddiy mustaqil bo'lishadi. Shu bilan birga yoshlarning yana bir katta qismi, birinchi navbatda, talabalar uchun bu yuqori malakaga ega bo'lish va faoliyatning turli sohalarini o'zlashtirish davri, ya'ni ularning ta'lim maqomi to'liq hisoblanmaydi. Ijtimoiy maqomning to'liqsizligi shu bilan bog'liqki, 18-23 yoshli yoshlarning aksariyati o'z uy-joyiga va uni qo'lga kiritishning real istiqbollariga ega bo'lmaydi.

Beshinchi bosqich: Yoshlik davri (23-29 yosh). Mazkur davr ma'naviy etuklikning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Manaviy dunyoqarashning etilishi, odatda, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar tizimi shakllanib, dunyoqarash yo'nalishlari va pozitsiyalari belgilanadigan, yosh insonning kasb tanlash va shakllanish davri ortda qolgan 27-28 yoshda yuz beradi. OTM bitiruvchilari O'zbekiston Respublikasi

hududida doimiy yashovchi, ishlamaydigan va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmaydigan, kunduzgi ta'lim muassasalarida o'qimaydigan va harbiy xizmatda turmagan, bandlik xizmatlarida ro'yxatgan olingan o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan mehnatga layoqatli shaxslardir.

Oltinchi bosqich: Oliy ta'lim muassasalarida talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish mazmuni.

Shuningdek, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida talabalar bandligini taminlash jarayonida uning quyidagi asosiy rivojlanish bosqichlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish o'zida rasmiy va norasmiy xulq-atvor qoidalari majmuini aks ettirgan holda, doimo milliy iqtisodiyotning asosiy subyektlaridan biri bo'lib kelgan.

Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish farovon hayot kechirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Uchinchidan, insoniyat jamiyati rivojlanishining har bir bosqichida oliy ta'lim muassasalarida talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish o'ziga xos tashkiliy shakllarda, xususan an'anaviy iqtisodiy tizimdir.

To'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda foydalaniluvchi ishchi kuchidir.

Bozor sharoitida ishchi kuchi tovarga aylanadi, ya'ni sotiladi va sotib olinadi, lekin boshqa tovarlardan farqli ravishda, uning egasidan ajralmaydi va ish beruvchining tasarrufiga vaqtincha o'tadi, xolos. Asosiy ishdan bo'sh vaqtida, u o'z egasining ixtiyoriga binoan qo'llanishi mumkin. Ishchi kuchi mehnat bozorida real tovar bo'lgani bois, unga nisbatan raqobat tamoyili qo'llanadi. Ma'lumki, bu tamoyilning maqsadi – tovarning talabga mos kelishidir. Talabga mos kelish sharti, olimlar tan olishicha, raqobatbardoshlik, ya'ni bozorda taklif qilingan boshqa tovarlardan farqli ravishda, tovarning muayyan bozor talablariga (bizning misolimizda ish beruvchilarning) javob berish qobiliyati yoki boshqa ishlab chiqaruvchilarning o'xshash tovarlariga taqqoslashga bardosh berish va shu munosabat bilan o'rtacha bozor narxlaridan kam bo'lmagan bahoga sotilish qobiliyati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni // Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi.
2. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son Qarori // Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi.

3. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni // Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi.
4. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun: O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ–637-son Qonuni // Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi.
5. Respublika ilm-fani va innovatsion faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-fevraldagi 99-son Qarori // Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi.
6. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. - М.: Эксмо. 2016. – С. 87.
7. Рикардо Д. Начало политической экономии и налогообложения. Соч. Т. 1. М., 1955. С.128.
8. Фатхутдинов Р.А. Стратегический менеджмент: Учебник. - 6-е изд., испр. и доп. М.: Дело, 2004. - С.168.
9. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. - М.: Азбуковник, 1999. - С.944.
10. Прихач А.Ю. Основы управления конкурентоспособностью. - СПб.: СПбГИЭУ, 2006. - С.55.
11. Abdurahmanov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 388 b.
12. Холмўминов Ш.Р. Қишлоқ меҳнат бозорининг шаклланиши ва ривожланиши ҳамда уларни моделлаштириш. Монография. – Т: "Fan va texnologiya" нашриёти, 2014 – 230 б.